

**JADID SHE'RIYATIDA “KUZ”, “QISH”, “XAZON”
TUSHUNCHALARI IJTIMOIY -SIYOSIY G’OYALAR RAMZI**

Ismatova Mohigul To‘yevna

Buxoro davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

ismatovamoxigul@gmail.com

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotida qo‘llangan ramziy obrazlar mifologiya, folklor va yozma adabiyotda o‘ziga xos badiiy talqin qilingan. Jadid she’riyatida mazkur obrazga yuklangan ma’no yanada kengayib ijtimoiy-siyosiy g’oyalarni aks ettirganligini ko‘rishimiz mumkin. Cho‘lpon, Fitrat o‘zbek she’riyatida simvolist shoir sifatida alohida mavqega ega ijodkorlar. Ularning she’rlarida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarning ramziylashtirilishi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Mazkur maqolada jadid she’riyatida kuz, xazon ramziy obrazlar orqali badiiy talqin qilingan ijtimoiy-siyosiy muammolarning ifodasi hamda shoir mahoratiga baho berilgan.

Kalit so‘zlar. Ramz, kuz, xazon, bahor ,istiqlol, mustamlaka, tutqin, peyzaj, tong.

Jadid shoirlari davrning ijtimoiy – siyosiy muammolarni tasvirlashda an’anaviy obrazlarga yangi ma’no yuklay boshladilar. Jumladan, fasllarni ifodalovchi atamalarga asl ma’nosidan farqli ravishda zamon ruhiga bog’liq yangi g’oyaviy mazmun bilan boyitildi. Bunday ramziy obrazlar folklor va mumtoz adabiyot an’analaridan oziqlangan bo’lsada, o’ziga xos ramziy-timsoliy tasvirlar jadid she’riyatining asosiy xususiyati sifatida ko‘zga tashlanadi.

Mumtoz o‘zbek she’riyatida kuzda bahorni sog’inish, qishning aziyatli kunlaridan sog’-omon chiqish, umuman, borliq va yo’qlik muvozanati, hayot va o’lim mavzularini badiiy talqin qilishda “bahor–xazon”, “yoz–qish” tazodidan keng foydalanilgan. Jadid ijodkorlari asr boshidagi Turkistonning ayanchli, xo’rlangan manzarasini badiiy talqin qilishda “qish”, “kuz” ramzidan, “bahor” – millatni uyg’otish, taraqqiyot, hurriyat, erk ramzi, “yoz” – vatan va millat ramzi sifatida talqin qilingan.

Yil fasllarini ramziylashtirishda Abdulla Avloniy, Sidqiy Xondaliqiyning tasvir yaratishi bevosita mumtoz an’analardan oziqlangani ko’proq ko’rinsa, Cho‘lpon, Fitrat yangi davr hamda G’arb she’ryatining ta’siri yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jadid shoirlari davrning ijtimoiy – siyosiy muammolarni tasvirlashda an’anaviy obrazlarga yangi ma’no yuklay boshladilar. Jumladan, fasllarni ifodalovchi atamalarga asl ma’nosidan farqli ravishda zamon ruhiga bog’liq yangi g’oyaviy mazmun bilan boyitildi. Bunday ramziy obrazlar folklor va mumtoz adabiyot an’analaridan oziqlangan bo’lsada, o’ziga xos ramziy-timsoliy tasvirlar jadid she’riyatining asosiy

xususiyati sifatida ko'zga tashlanadi.

Mumtoz o'zbek she'riyatida kuzda bahorni sog'inish, qishning aziyatli kunlaridan sog'-omon chiqish, umuman, borliq va yo'qlik muvozanati, hayot va o'lim mavzularini badiiy talqin qilishda "bahor-xazon", "yoz-qish" tazodidan keng foydalilanilgan. Jadid ijodkorlari asr boshidagi Turkistonning ayanchli, xo'rangan manzarasini badiiy talqin qilishda "qish", "kuz" ramzidan, "bahor" – millatni uyg'otish, taraqqiyot, hurriyat, erk ramzi, "yoz" – vatan va millat ramzi sifatida talqin qilingan.

Cho'lponning she'riyatida kuz va xazon mavzusiga ko'p murojaat qilingan. Shoir she'rlarida tabiat va inson, tabiat va jamiyat orasidagi uyg'unlik peyzaj vositada yuzaga chiqadi. Ushbu uyg'unlikni tabiatning go'zalligi va jamiyatdagi murakkabliklar birlashtiradi.

Lirik she'rlarda "kuz", "xazon" ramzi ko'pincha insonning umidlari va hasratlari orasidagi murakkabliklarning badiiy ifodasi uchun xizmat qiladi. Biroq Cho'lpon ijodida mazkur ramzlar ijtimoiy-siyosiy tushunchalarga doir g'oyalarni ifodalash uchun bo'ysundirilganligini ko'rish mumkin. Buni shoirning "Kuz" she'ri misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Ko'm-ko'k ekan, sarg'aydilar yaproqlar –
Og'riq, mag'lub, tutqun Sharqning yuzidek.
Bo'ronlarning ko'zlari, kim o'ynoqlar,
G'olib G'arbning qonga to'lган ko'zidek.

Bahorda ko'm-ko'k bo'lган yaproqlarning sarg'ayishi tabiiy jarayon. Shoir mana shu tabiiy jarayondan o'zining badiiy niyati uchun mahorat bilan foydalangan. Kuzda sarg'aygan yaproqlar "og'riq va mag'lub bo'lган Sharqning yuziga" qiyoslanadi.

Sharqning "mag'lub" va "tutqun" holati jamiyatdagiadolatsizlik, zulm va inson huquqlarining buzilishiga ishora qiladi. She'rda ijtimoiyadolat va inson huquqlari, millat erki masalasi peyzaj tasviri vositasida yuzga chiqarilar ekan, aytish mumkinki, bu o'rinda tabiat ijtimoiylashtiriladi. "Tutqun Sharq" va "qonga to'lган G'arb" qiyoslanadi. "Cho'lpon she'rlarida tabiat manzaralari, fasllar tasviri aksariyat shoirning ruh va kayfiyatining emas, qay bir darajada g'oya va maslagini ham o'zida namoyon etadi. 1921-23-yillarda yozilgan she'rlarda tabiatga ijtimoiy sifatlar berilardi. Manzaraga mos zamon voqealari - haqsizliklarga ishora qilinardi. Bir so'z bilan aytganda, tabiat ijtimoiylashardi va bular ko'pincha "Sharq" va "Farb" muqoyasasida berilardi".

Ijodkor qancha buyuk bo'lsa, unda hissiyot ham shuncha kuchli bo'ladi. Buni Cho'lpon she'rlari yaqqol isbotlaydi. Cho'lpon o'z fikrlariga o'ta sobit edi. Buning amaliy isboti – shoir qoldirgan yuksak pafosdagi she'riy bisotidir, chunki unda ijodkor shaxs imon-e'tiqodi va qarashlari bilan jamiyatga ko'z tutdi. Shu orqali jamiyatni uyg'otishga, millatni millat bo'lishga chaqiradi, mustamlakachilikni ayovsiz tanqid

qiladi.

Balo yanglig' qator-qator chizilib,
Ko'k yuzidan qarg'alar ham o'tarlar
Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,
Ko'p jonlilar so'nggi tinni kutarlar

Dunyoda yakkahokimlikka intilgan sobiq sho'ro davlati, kommunistlar partiyasi o'zining siyosiy muxoliflarini yenggach, Haq va haqiqatni tanigan, iymon va e'tiqodni odamiylik mezoni deb bilgan millatni mustamlaka aylantirdilar. Cho'lpon bunday ayanchli tasvirni berishda "qora bulut, "kuz qo'shig'i" ramzları orqali badiiy talqin qiladi.

Qora bulut to'dasi kim ko'klarni –
Sharqni yopgan parda yanglig' yopmushdir.
Kuz qo'shini – og'u to'lug' o'qlarni
Yoz bag'rige hech sanoqsiz otmishdir

Sharqni pardaday yopgan "qora bulut" to'dasi – Turkiston ozodligini yo'qqa chiqarishni istagan mustamlakachilar. "Qora bulut" "kuz qo'shig'i"ni kuylashni istaydi. Bu qo'shiq "og'u"ga to'lug'. E'tibor bersak, Cho'lpon she'rda yoz – kuzni kontrast uslida tasvirlash orqali maqsadini yana oydinlaytiradi. Bu bilan "yoz" va "kuz" ramziy obraziga yuklangan ma'no doirasini kengaytiradi. "Kuz" – istibdod, mustamlakachilar, "yoz" – vatan va millat taqdiriga ishora.

Balo yanglig' qator-qator chizilib,
Ko'k yuzidan qarg'alar ham o'talar.
Sharqdek ichdan yashiringina ezilib,
Ko'p jonlilar so'nggi tinni kutalar.

Butun borliq – chog'lik o'chish oldida,
Sovuq... qora qishga ko'chish oldida.

Bilamizki, tabiatning "so'ngi tini" - bu qish. Cho'lpon tabiatdagi mana shu holatni jamiyatga ko'chirgan. "So'nggi tin – uyquga ketish". "So'ngi tin"ni kutganlar "ichdan yashiringina ezilgan ko'p jonlar"dir, deya ta'kidlaydi. She'rning oxirgi ikki misrasida shoir firini ochiq bayon qiladi. Butun borliq (jamiyat) "qora qishga ko'chish oldida".

Cho'lponing nasriy asararida ham qish ramzidan keng foydalanilgan. "Bahor avvallari" hikoyasi tasvir kuchi, ramziy ishoraviyligiga ko'ra alohida ajralib turadi. Shoir hikoya so'ngida bir bayt keltiradi.

Ichung choy o'turing behuda g'iybat soting ey xalq,
Kelur qish bir vaqt qolmas sizga davru davronlar.

Hikoya so'ngida keltirilgan misralar orqali shoir xalqning ma'naviy tanazzulini badiiy talqin qiladi. Bunday ma'naviy tanazzul esa esa "qorong'ulikdir". Qish - qorong'ulik, zulmat, jaholat va tanazzul ramzi.

Umuman olganda, Cho'lpon istibdodga bo'lgan isyonini ramzlar tilida ifodalar ekan, millat va Vatan taqdiri uchun kurashuvchan shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Cho'lpon o'z ijodida istibdodga bo'lgan isyonini ochiq-oshkor ifodalagan shoirlardan biridir. Hatto bol'shieviklar hukumati davrida ham senzuraning ta'siri pisand qilmay, fikrlarni ramzlar tiliga ko'chirdi.

Sharqni pardaday yopgan "qora bulut" ramzining o'ziga xos talqinini Abdurauf Fitratning "O'quvchilar yurtig'a" she'rida ham ko'rishimiz mumkin.

Orqadoshlar, to'planaylik jahlning uyin yiqqali,

El ko'zin olg'an qorong'u pardalarni yirtqali.

Biz erurmiz ma'rifat arslonlari, ilm erlari,

To'planaylik, turk elig'a to'g'ri yo'llar ochqali

Fitrat tasvirlagan "jahl uyi" xalqining g'aflat, jaholat va qorong'u ahvoliga ishora. Millatning "ko'zlarini qoplagan qora pardalar" Fitrat yashagan davrda xalqning bilimsizligidir. She'r davomida Abdurauf Fitrat o'qituvchilarni jadidchilik harakati yo'lida birlashishga chaqirdi. She'rda da'vatkor ruh ustivor. Shoir shu orqali o'qituvchilarni jadidchilik harakati yo'lida birlashishga chaqirdi. She'rda qo'llangan "to'planmoq", "qutqarmoq" kabi so'zlar jadidchilikni ommaviy harakat izlarini o'zida mujassam etgan so'zlar deyishimiz mumkin.

Ma'lumki, Abdurauf Fitratning o'zbek tilidagi she'rlari juda oz. Adabiyotshunoslar bu she'rlar hajmini 20 ga yaqin ekanligini ta'kidlaydilar.

Jadid she'riyatida fasl nomlariga yangi ma'no yuklanishi, ijodkorlarning zamon talablari va ijtimoiy o'zgarishlariga javob berish istagi bilan bog'liq edi, albatta. Fitratning o'zbek tildagi she'rlarida yil fasllari nomining ramziylashtirilish holati kuzatilmaydi. Biroq uning tojik tilidagi she'rlarida buning tezkarisi. Fitratning tojik tilidagi she'rlari 1909- yilda Istambulda "Sayha" nom ostida nashr qilingan. To'plamga kirgan she'rlarning barchasi Vatan va millat erki haqida. Shoir shuning uchun ham o'z to'plamiga "Sayha" deb nom berdi. Chunki Vatan haqida hissiz, sokin so'zlab bo'lmaydi. "Sayha" – "bong, faryodi dahshatangiz, na'ra" demakdir. Demak, Fitrat Vatanning kelajagidan qayg'urub faryod bilan kuyladi. Xalqning ozodligi, adolatli hayot va ijtimoiy tenglik haqida bong urdi. Millatni birlikka chaqirmoq uchun na'ra tortdi.

"Sayha"ga kirgan she'rlarda ramziy ma'no ustivor. Shoirning «Tiramoh» (Kuz) she'ri fikrimizni tasdiqlaydi.

In fasli xazon ast, daraxton hama zardand,

Ku sabza, kujo lola, ba gulzor chñ kardand?

Az changu g'ubore, ki buvad mohi xazonro,

Bechora daraxton hama oludai gardand.

Murg'oni g'azalxon, ki zi gulzor paridand,

To fasli bahoroni digar hej nagardand.

Har g'allavu har donavu har meva, ki didem,
Burdand zi sahrovu ba anbor supurdand.

G'azal janriga mazkur she'rda kuz manzarasi tasvirga olingen. Gulzordagi gullardan nishon qolmagan. G'azalxon bulbul gulzordan uchib ketgan. Uni keyingi bahorda hech kim ko'rmaydi...

G'azaldagi "fasli xazon", "zardii daraxton" (daraxtlarning sarg'ayishi), "g'animati sabzavu, lolavu, gulzor", "chang'u g'ubor", "mohi xazon", "daraxtoni bechorai oludai gard" (changga burkangan bechora daraxtlar), "raftanu barnagashtani murg'oni g'azalxon" (g'azalgo'y qushlarning borishi, ammo qaytmasligi), "fasli bahoroni digar" kabi birikmalar ramziy ma'noda qo'langan. Diqqat qilsak, kuzning hazin holati va shoirning ruhiyatida yaqinlilik bor. Buni she'rdagi "g'azalgo'y qushlar" ramzidan ham anglash mumkin. G'azalgo'y qush – bu shoirning o'zi.

Fitratning to'rt baytdan iborat bo'lган "Zimiston rasidaast, joni barodar" misrasi bilan boshlangan qit'sida ham qish fasli ramziylatirilgan. Qish, qor – zulmat ramzi sifatida badiiy talqin qilingan. Qora bulutlar quyoshning bosh ko'tarishiga yo'l qo'ymaydi. Quyosh - istiqlol, erk ramzi sifatida badiiy talqin qilingan.

Zimiston rasidaast, joni barodar,
Jahonro giriftaast sarmo sarosar.
Hama dar tahi barf gardida pinhon,
Chi ko'hu chi sahro, chi devoru dar.
Chunon abr bebok gardida in fasl,
Ki xurshed az bar n-orad burun sar.
Chi yoro, ki ohu ba sahro zanad sum,
Chi hadde, ki pashsha zanad dar havo par.

Mazmuni: Qish yetib keldi jon ukam. Jahon bo'ylab qahraton sovuq hukmron. Tog' ham, cho'l ham, eshik-u devor ham qor tagida yashirindi. Bu faslda bulut juda jasur va jur'atli bo'ldi-ki, hatto quyosh ham yuzini ko'rsata ololmadi. Hatto ohu ham tuyog'ini qimirlata olmaydi va pashsha ham havoda qanot qoqolmaydi.

Bir qarashda Fitrat qahraton qishning tasvirini berayotganday. Aslida lirik qahramon (shoir) birodariga murojaat qilish orqali jamiyatda hukm surgan mustamlakachilikning ayanchli ahvoliga ishora qiladi. Qish – mustamlakachilik ramzi, bulut – mustamlakachilar – rus bosqinchilari, qor tagida qolgan quyosh – millat ramzi sifatida talqin qilingan. Fitrat mamlakatdagi ahvolning nihoyatda og'irligini "tog' ham, cho'l ham, eshik-u devor ham qor tagida yashiringan, hatto ohu ham tuyog'ini qimirlata olmaydi, pashsha havoda qanot qoqolmaydi" kabi ta'riflar orqali haqqoni tasvirlab berishga erishgan.

Fitrat Cho'lpon kabi istibdodga qarshi isyonini birinchi bo'lib ochiq-oshkor ifodalagan shoir sifatida, bolsheviklar hukumati tomonidan joriy etilgan senzuraning bosimi kuchaygan sari, o'z fikrlarini ramzlar tiliga o'tkazishga va ularni pardalab

ifodalashga majbur bo'lgani ma'lum. Buni yuqoridagi ramzlarga asoslangan she'r misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Aytish mumkinki, poetik mezonlar har bir davr adabiyoti va uning vakillarining asarlariga ijodiy va estetik jihatdan baholash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mezonlar an'anaviy mavzularni zamonaviy kontekstda qayta tadqiq qilishni, ularga yangi ma'no yuklash va o'ziga xos uslubda ifodalash imkonini beradi. Shuning uchun shoirlar an'anaviy mavzular va obrazlarni o'z asarlarida qaytadan yaratishga intilganlar. Jumladan jadid ijodkorlari ham tabiat va tabiat hodisalarini badiiy talqin qilish orqali ularga yuklangan ramziy-timsoliy ma'nolar doirasini kengaytirdilar. Bundan tashqari, jadid ijokorlari an'anaviy mavzu va ramziy obrazlarni o'z asarlarida o'zlarining individual estetik qarashlari bilan boyitdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

Mingboyeva D.Timsollar tilsimi. –T.: Yangi asr avlod. 2007.

Cho'lpon. Yana oldim sozimni. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991.

Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. T.: O'qituvchi, 1997.

Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. “Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.T.: – 2004.

Eshonqulov H. Samovot – ishq mahzari. Istiqlol davri navoiyshunosligi. XXX jildlik. XXIII jild –T.: “Tamaddun”, 2021.

Qosimov B., Yusupov Sh., Dolimov U., Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. Oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlari uchun darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.